

Zamonaviy texnologiyalar vokal ijrochiligini o'rganish jarayonini yanada osonlashtirmoqda. Internet orqali masofaviy darslar, virtual ovoz mashqlari, sun'iy intellekt yordamida ovoz tahlili kabi innovatsion usullar keng joriy qilinmoqda. Xususan, zamonaviy ovoz dasturlari xonandalar uchun individual mashqlarni shakllantirishga, ularning ovoz diapazonini aniqlashga va ijrochilik texnikasini yaxshilashga yordam bermoqda. Bundan tashqari, vokal pedagogikasida raqamli vositalardan foydalanish, o'quvchilarning qobiliyatini tahlil qilish va ularga mos metodik yondashuvni aniqlash imkoniyatini oshirmoqda. Ushbu texnologik taraqqiyot vokal san'atining yanada ommabop bo'lishiga hissa qo'shmoqda va yangi avlod ijrochilari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki vokal san'ati insonning eng tabiiy va qudratli

ifoda vositalaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi madaniyat va texnologiyaning o'zaro ta'siri natijasida davom etmoqda. U insoniyatning tarixiy merosiga asoslangan holda, turli davr va madaniyatlarda o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lib kelgan. Vokal ijrochiligi inson hissiyatlarini chuqur ifodalashga, madaniy an'analarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Akademik vokaldan tortib zamonaviy estrada musiqasigacha bo'lgan keng qamrovli yo'nalishlar vokal san'atining kelajagi yorqin ekanini ko'rsatadi. Bugungi kunda vokal san'ati texnologiyalar bilan uyg'unlashib, yangi uslublar va ifoda imkoniyatlarini kengaytirish imkonini bermoqda. Shuningdek, ushbu san'at turini o'rganish va rivojlantirish musiqa madaniyatining yuksalishiga xizmat qilib, yangi iste'dodlarni kashf etishga imkon yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. (2010). O'zbek musiqasi va vokal ijrochiligi. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
2. Xudoyberganov B. (2015). Musiqa nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Smith J. (2008). The Art of Singing: A Historical Perspective. New York: Oxford University Press.
4. Brown T. (2012). Vocal Techniques and Performance. London: Cambridge University Press.
5. Mahmudov R. (2018). An'anaviy O'zbek Xonandaligi. Samarqand: Sharq nashriyoti.
6. Wilson P. (2020). Modern Vocal Training and Its Impact on Performance. Los Angeles: MusicWorld Publications.
7. Safarov D. (2021). Musiqa pedagogikasi va vokal san'ati. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

REZYUME. Ushbu maqolada vokal san'atining bugungi kungacha bo'lgan tarixi va ahamiyati haqida so'z boradi. Vokal san'ati janrlari haqida to'liq ma'umot berilgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассказывается об истории и значении вокального искусства на сегодняшний день. Дается исчерпывающая информация о жанрах вокального искусства.

SUMMARY. In this article, we will talk about the history and significance of the art of vocal in its advanced stages today. Full coverage of genres of Vocal art is given.

DRAMATIK ASARLARNING SAHNALASHTIRILISHIDA AKTYOR SHAXSIYATI VA NAMOYISH ETISH SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Qudaybergenov Alibek Amandiq o'g'li – o'qituvchi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so'zlar: san'at, spektakl, aktyor, teatr, rol, ijod, rejissor

Ключевые слова: искусство, спектакль, актёр, театр, роль, творчество, режиссёр

Key words: art, spectacle, actor, theater, role, creativity, director

San'at bu – go'zallik, san'at bu – ta'lim, san'at bu – tarbiya demak. Aktyor esa tarbiyalovchi hisoblanadi. Tarbiyachi deganda, ko'z oldimizga eng birinchi qo'limizga qalam tutqazgan, bizga yozish-u o'qishni o'rgatgan ziyoli muallim, ustoz, pedagog keladi. Aktyor tarbiyalovchi bo'lsa, bunga loyiq bo'lish uchun

nima qilishimiz kerak? Aktyorlik mahorati kasbi adabiyot va musiqaga yaqinligi sabab juda ko'p kitob o'qishni taqozo etadi. Obrazni yaratish uchun, biror monologni ijro etish va biror asardan ariya kuylash uchun dramaturgik asarni o'qishimiz shart. Asarning mazmun-mohiyati, izchil dinamikasi, voqealar rivoji, davr ruhiyati

pyesada aks etadi. Qahramonlarning xarakteri, ichki dunyosi, fikrlash doirasi, dardini his qilishi, hayoliy orzulari namoyon bo'ladi. "Namoyish etish san'ati" tarafdorlari sahnaning o'ziga xos shartlilikiga amal qilib ijod qilishga, tashqi ko'rinishga, xatti-xarakatlarning jimjimadorligiga, ayniqsa "teatrona" tomoshaviylikka intilishlari bilan ajralib turadi. Ular bu intilishlari bilan hayotiylikdan, ya'ni realizmdan uzoqlashib, tomoshabinni ijtimoiy hayotning achchiq haqiqatidan chalg'itishni asosiy maqsad qilib oladilar. Namoyish etish darajasiga ko'tarilish uchun ular repetitsiyalarda aktyorlardan rolning tuyg'ularini, ehtiroslarini to'g'ri kechinishni talab qiladilar.

Harbir spektaklda zavq bilan "qayta kechinish" uchun aktyorda namoyish etishdan ko'ra yuqoriroq bo'lgan bosqich – "ijodkorlik tuyg'usi" to'g'ri tarbiyalangan bo'lishi lozim edi. Shundagina tomoshabinlarning qalbiga hamda ehtiroslariga kuchli ta'sir etish mumkin bo'lardi.

Havaskorlar orasidan saralab olingan bo'lg'usi aktyorning ilk qadamidan boshlab ijodkorlik tuyg'usi va irodasi to'g'ri tarbiyalansagina, u sahna hunari talablarini ijodkorlik nuqtai nazaridan o'zlashtiradi. Hunar talablarini o'zlashtirgan talabalargina navbatdagi bosqichga – dramaturg va rejissyor rejalashtirgan harakatni sahnada bajara oladigan aktyorlik darajasiga ko'tariladi. Bunday ijrochining "aktyorlik tuyg'usi" – o'zlashtirilgan hunar talablariga tayanib, teatr san'atining asosi bo'lgan "akt" – harakatni bajara oladi, ya'ni personaj intilishni rivojlantirib, perepitiya orqali yechimga olib kelish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bunday ko'nikmaga ega ijodkor shaxs – "akt", ya'ni harakat bajaruvchisi, aktyor maqomiga ko'tariladi. Chunki, havaskorlikdan hunarmandlikka, so'ngra aktyorlik darajasiga erishish murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. [1] Stanislavskiy aktyorlik maqomiga erishganlarni evolyusion rivojlanib boruvchi uch darajaga ajratadi. Birinchisi – aktyorlik tuyg'usiga tayangan ijro. Ikkinchisi – ijodkorlik tuyg'usiga asoslangan ijro. Uchinchisi – san'atkorlik tuyg'usiga ega bo'lgan, yuqori badiiy saviyadagi ijro. Bu uch daraja orasidagi farqni anglash faqat Stanislavskiyga nasib qildi va "kechinma san'ati" tizimini yaratishiga asos bo'ldi. U aktyorlik san'ati dialektik rivojlanishdan iborat jarayon ekanligini nazariy isbotladi. Quyida shu bosqichlarning izohini ko'ramiz.

Aktyorning rol ustidagi izlanishlari repetitsiya uchun ajratilgan vaqtga nisbatan bir necha barobar ko'proq bo'lishi lozim. Ko'pchilik aktyorlar bu talabga o'zlarining dangasaliklari yoxud rejissyorsiz ishlay olmasliklari sababli

javob bera olmaydilar. Ayrimlari esa rol ustida, uy sharoitida qanday ishlash kerakligini bilmaslikni bahona qiladilar. Ayrim aktyorlar esa "uyda ishlash" deganda, rolning so'zlariga ohang berib o'qish, o'zi yoki hamroh bilan bahslashish kabi mashg'ulotlarni bajaradilar. Bu esa repetitsiya jarayonida tug'iladigan haqiqiy ijodiy izlanishlar yo'lidagi o'tib bo'lmas g'ovga aylanishini yaxshi tushunmaydilar.

Avvalo, rejissyor va ijodiy jamoa bilan birgalikda stol atrofida olib borilgan mantiqiy o'qishlar davomida pyesaning g'oyaviy yo'nalishi, bo'lg'usi spektaklni sahnalashtirishdan ko'zlangan "oliy maqsad", mazkur rolning pyesa talqinida tutgan o'rmini aniqlab olmay turib, rol ustida uy sharoitida ishlash mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, rol ustida mustaqil ish boshlashdan avval, aktyor: "Shu rolni sahnalashtirayotgan spektaklda nima uchun o'ynayman?", degan savolga aniq javob topishi kerak bo'ladi. [2] Stanislavskiy ijodkorlik tuyg'usini to'g'ri tarbiyalash uchun avvalo, "kechinma san'ati"ga zarur bo'lgan inson vujudini sahnada tabiiy ishga tushiradigan jonli muloqot qoidalariga amal qilish zarurligini takidlaydi. Bu qoidalar "sistema"ning emas, balki tabiatning azaliy tizimi, tartibi ekanligini asoslaydi. Sistemaning ilmiy qiymati hayot qonunlarini tizimga solinganligida, tadqiqotchining izlanishlari amaliyotda o'zining isbotini topganligida, Moskva Badiiy teatrining buyuk aktyorlari va studiyalarning yosh talabalari bilan sinovdan o'tkazilganligida, Meyerxold, Vaxtangov kabi jahonga mashhur rejissyorlarni, hamda dunyoni lol qoldirgan yangi aktyorlar avlodini tarbiyalaganligida, ular yaratgan spektakllar badiiy yaxlitligi, manaviy va g'oyaviy yuksakligi bilan tomoshabinlarni hayratga, bazan larzaga solganligida edi. Eng muhimi, namoyish etish san'ati tarafdorlarining aktyorlik san'ati "ilohiy ilhom"ga, "takrorlanmas iqtidorga" bog'liq, degan tushunchalarini inkor eta olganligidadir.

"Kechinma san'ati" talablari unsurlarini muntazam mashq qilib, o'z mahoratini takomillashtirib borish har bir aktyorning irodasi bilan bog'liq murakkab jarayon. Bu jarayonni Stanislavskiy "tuyg'ular mashqi" deb ataydi. "Kechinma san'ati" aktyorlari ham xuddi balet artistlari yoki cholg'uchilar kabi o'zlarini ijroga "sozlash"ni zarurat deb bilmoqlari shart. Stanislavskiyning "Aktyorning o'z ustida ishlashi" nomli ikki qismdan iborat kitobi ikki qismga: birinchisi – aktyorning kechinma san'ati talablari asosida o'z ustida ishlashi, ikkinchisi – aktyorning rolni o'zlashtirish, ya'ni qiyofa

yaratish jarayoni masalalariga bag'ishlanadi. Uning niyati ijodkorlik tuyg'usini o'zida to'g'ri tarbiyalay oladigan aktyorlarning yangi avlodini yaratish edi. Ijodkorlik tuyg'usi – o'zidan qoniqmaslik, sahnada kechagidan yaxshiroq, erkinroq, ma'niliroq, zavqliroq, mukammalroq harakat qilish orqali rolning badiiy yaxlitligiga intilishi kabi tushunchalarni o'z ichiga olardi.

Rol ustida ishlash jarayonida spektaklning oliy maqsadini va har bir personajning yetakchi xatti-harakatni to'g'ri belgilash, butun jamoaning g'oyaviy yuksakligini, intilishini, manaviy darajasini, badiiy fikri teranligining ko'rsatkichiga aylanadi. Shuning uchun spektakl yaratish jarayonida "oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat"ni to'g'ri belgilash hal qiluvchi bosqichga, sistemaning rol ustida ishlash jarayonidagi bosh masalasiga aylanadi. Bu masala o'z navbatida aktyorning sahnadan tashqaridagi, ya'ni hayotdagi oliy maqsadiga ham aniqlik kiritadi. Stanislavskiy bu tushunchalarni ijodkorning eng oliy maqsadi, ya'ni shaxsning oliy maqsadi, deb belgiladi. Bu maqsad ijodkorning manaviy qiyofasini belgilaydigan, ijtimoiy intilishini namoyon qiladigan, dunyoqarashini, badiiy saviyasini, tarbiyalanganlik darajasini va fuqarolik burchini oshkor qiladigan ko'rsatkichdir. Tabiat qonunlariga asoslanib, shaxs darajasiga ko'tarilgan aktyorning badiiy yaxlit shaklda yaratgan obrazlari uning ijodkorlik qudratini ko'rsatadi. Zamonamizning mashhur aktyori Oleg Tabakovdan "sizning rollaringiz bir-birini takrorlamaydigan yangi qirralari bilan barchani esida qoladi. Buning siri nimada?", deb so'rashganida, "Men pyesaning tahlilini rejissyordan ham, tanqidchilardan ham yaxshiroq bilaman", degan javobni aytgan. Demak, bu aktyorda aql, iroda va hissiyot uyg'unligidagi ijodkorlik tuyg'usi, yaratuvchanlik qudrati mavjud. Har bir san'at bilim yurti oldida talabalar tarbiyasiga qaratilgan muhim vazifa mavjuddir.

1. Talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirish;

2. Talabaning ichki layoqatini yuzaga chiqarish.

Birinchi vazifa: bo'lajak ijodkorni siyosiy g'oyaviy, intizomiy, ma'naviy mafkuraviy jihatdan tarbiyalash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi vazifa: professional tarbiya vositasida, talaba ongida ijodkor shaxs tuyg'usini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Aktyorlik mahorati yuzasidan o'tkaziladigan imtihon,

mohiyatan, boshqa yondosh fan uchun ham imtihon hisoblanadi. Chunki talaba badiiy siymo yaratish jarayonida o'z imkoniyatlarini har tomonlama namoyish etadi. Afsuski, o'quv jarayonida talabalar nazariy darslarga jiddiy e'tibor bermaydilar. Bunday ahvolning paydo bo'lishiga, shubhasiz, mahorat sirlarini o'rgatadigan o'qituvchilar sababchidir. Chunki ular amaliy mashg'ulotlar paytida nazariy bilimlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini talabalarga yaxshiroq tushntira bilmaydilar. Nazariy fanlardan saboq beruvchi o'qituvchilar yesa, o'z navbatida, nazariya amaliyot bilan chambarchas bog'liq yekanligini o'z tinglovchilariga yetkaza olmaydilar. Ko'p yillik teatr san'ati tajribasidan shu narsa ayon bo'ladi, aktyorning tashqi qiyofasiga mos tushgan rol o'rtacha ijrodan yuqori darajaga ko'tarilmaydi. Buning sababi nimada?

Ma'lum bo'lishicha, sahnada ijodiy-g'oyaviy fikrni tomoshabinga yetkaza olish uchun, qobiliyatli aktyor bo'lishdan tashqari, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan yetuk, har tomonlama professional, tayyorgarlik ko'rgan va shakllangan shaxs bo'lish kerak yekan. Negaki, ijodkor ijodiy-g'oyaviy fikrni o'zida tajassum yetishdan oldin, o'sha fikr uning ongida paydo bo'lishi, tafakkur ko'zgisidan o'tishi, so'ngra siymo qiyofasida namoyon bo'lishi kerak. Bunday vazifani ado yetish uchun esa, munosib tashqi qiyofaning o'zigina kifoya qilmay, ana shu darajadagi tafakkur ham suv bilan havodek zarurdir. Bo'lg'usi aktyorlarga ta'lim berish jarayonida, ikki qutbdan bir-biri tomon intilayotgan: amaliy va nazariy bilim beruvchi o'qituvchilarning o'z talabalariga, ijodiy jarayon kechadigan sahna maydonida, har ikki bilimning uchrashishi uchun zamin yaratishlari zarur bo'ladi. [3]

1930 yilga kelib Stanislavskiy yaratgan "kechinma san'ati" tizimi sahnada badiiy haqiqatni yarata oladigan yangi aktyorlar avlodini shakllantirganligi haqida kitoblar yozila boshlandi. L. Leonidov sistemadan olgan taassurotlarini shunday izohlaydi: "Stanislavskiy aktyor nigohini o'zining qalbiga qaratishga o'rgatdi. U labirintlar orasida yuz yillab adashib yurgan ijodkorlik tuyg'usini kenglikka olib chiqdi. "Kechinma san'ati" tizimi aktyorni qorong'ulikdan yorug'likka yetakladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. Toshkent-2005.
2. Umarov M. Teatr san'ati qoidalari "Jahon adabiyoti", 2014 yil, 3-son.
3. Yorbekov Sh. Muhammadiyev. Aktyorlik mahorati. Toshkent – 2018.

REZYUME. Rol ustida ishlash jarayonida spektaklning oliy maqsadini va har bir personajning yetakchi xatti-harakatni to'g'ri belgilash, butun jamoaning g'oyaviy yuksakligini, intilishini, man'aviy darajasini, badiiy fikri teranligining ko'rsatkichiga aylanadi. Stanislavskiy yaratgan "kechinma san'ati" asoslari va yangi aktyorlar avlodining shakllanishi.

РЕЗЮМЕ. В процессе работы над ролью правильное определение высшей цели спектакля и руководящего поведения каждого персонажа становится показателем идейной высоты, стремления, духовного уровня и глубины художественной мысли всего коллектива. Основы «искусства опыта», созданного Станиславским, и формирование нового поколения актеров.

SUMMARY. In the process of working on a role, the correct definition of the highest goal of the performance and the leading behavior of each character becomes an indicator of the ideological height, aspiration, spiritual level and depth of artistic thought of the entire team. The foundations of the "art of experience" created by Stanislavsky and the formation of a new generation of actors.

ВОКАЛ ҮЙРЕТИҮ ПРИНЦИПЛЕРИ ҲАМ МЕТОДЛАРИ

Ж.А.Қуламбетова – оқытқышы

Ўзбекистан мамлекетлик кóркem óнер хám мáденият институты Нокис филиалы

Барлық даўыслар тэбиятынан кемшиликлерден ибарат болып, оқыўды талап етеди, оның мақсети кемшиликлерди дүзетиў хám даўысты жетилистириў.

М.Глинка

Таяныш сөзлери: даўысты сазлаў қағыйдалары, вокал еситиў мәселелери, вокал көнликпелери, даўыс гигиенасы хэм режими.

Ключевые слова: правила настройки голоса, вопросы вокального слуха, вокальные навыки, гигиена и режим голоса.

Key words: rules of voice tuning, vocal hearing issues, vocal skills, voice hygiene and regime.

Вокал үйретиў процесинде оқыўшы тек гана қосықшылық хаўаз пайда болыўы хаққындағы билимлерди ийелеп қоймастан онда вокал-техникалық, көркем өнер көнликпелери қәлиплеседи, жетилеседи, даўысы, атқарыў қәбилети, музыкалық-эстетикалық талғамы, ақылый қәбилети: еслеп қалыў, бақлаўшылық, пикирлеў, қыял, сөйлеў, әдеп-икрамлылық сезимлери, ерк-ықрары раўажланады.

Даўысты қойыў - бул дурыс қосық айтыў көнликпелерин ислеп шығыў, яғный даўысты раўажландырыў хэм үйретиў. Қойылған даўыс жаңғырығы, сулыўлығы, тембр бояўының байлығы, диапазонының кеңлиги; сөзлердиң айтылыўының анықлығы, интонацияның тазалығы менен ажыралып турады.

Физиологлар даўысты орнатыў хаққында не дейди? Сахналастырыў процесинде булшық етлердиң жумысы нәзик дифференциалласады. Керекли байланыслар, рефлекслер пайда болады, ислеп шығарылады, керек емеслери тормозланады, артықша хәрекетлер хэм күшлениў жоғалады, турақлы вокал көнликпелери қәлиплеседи, нәтийжеде даўыс күшли, таза, еркин жаңлай баслайды.

Даўысты қойыў усыллары (вокал мектеплеринде) хәр түрли болыўы мүмкин, бирақ олардың барлығы жумыстағы улыўмалық принциплер хэм басқышларға сүйенеди: дем алыўды раўажландырыў хэм жетилистириў, резонаторлардан пайдаланыў, позиция (еснеў), сес хұжимлери хаққында түсиник хэм көнликпелерди өзлестириў; техникалық вокал усылларын өзлестириў, артикуляция аппараты менен шынығыўлар.

В.Морозов өзиниң «Вокал еситиў хэм хаўаз» шығармасында былай деп жазады: «Адам хаўазы – «тири музыка әсбабы», скрипка ямаса фортепианоға қарағанда бир неше есе қурамалы, тек музыка емес, бәлким физиология нызамларына да бойсынады. Онда «атқарыў» ушын оның ең кеминде тийкарғы «техникалық қәсийетлерин» билиў керек».

Вокал еситиў - қосықшының даўыс пайда етиў органлары искерлигин еситиў сезими тийкарында талқылаў қәбилети деп айтыўымыз мүмкин. Буның дәлийли бизлер қосықшылық сестиниң кемшиликлерин ямаса оның абзаллықларын тәрийиплеўши атамалар болып есапланады: аўыр-жеңил, тамақлық-көкиреклик, бослық-қарынлық, терең-жақын,